



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

TOMAS HARDINING “G‘ALATI OLOMONDAN UZOQDA” ROMANINING POETIK XUSUSIYATLARI

Sherkulov Sardor Komilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tomas Hardining “G‘alati olomondan uzoqda” romanining poetik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Asarda Viktoriya davrining ijtimoiy-psixologik muammolari, obrazlar tizimi, makon va zamon tasviri, til va uslub poetikasi chuqr o‘rganiladi. Ayniqsa, Batsheba Everdin obrazining feministik yondashuv asosida tahlili, Vesseks xayoliy hududining xronotop sifatida ifodalanishi va psixologik realizm tamoyillarining amalga tatbiq etilishi tahlil markazida turadi. Tadqiqot Hardy ijodining poetik strukturasi orqali ingliz realizmining nazariy-estetik asoslarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tomas Hardi, roman poetikasi, Viktoriya davri, feministik tahlil, xronotop, realizm, naturalizm.

Abstract

This article provides a scholarly analysis of the poetic features in Thomas Hardy’s novel *Far from the Madding Crowd*. The study explores the social and psychological tensions of the Victorian era, the structure of character representation, the depiction of space and time, as well as Hardy’s distinctive language and style. Special focus is placed on the feminist interpretation of Bathsheba Everdene, the symbolic role of the fictional Wessex as a chronotope, and the principles of psychological realism. The paper aims to uncover the theoretical and aesthetic foundations of English realism through the poetic structure of Hardy’s novel.

Keywords: Thomas Hardy, novel poetics, Victorian era, feminist analysis, chronotope, realism, naturalism.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ поэтических особенностей романа Томаса Харди «Вдали от обезумевшей толпы». Исследование охватывает социально-психологические конфликты викторианской эпохи, систему персонажей, особенности времени и пространства, а также язык и стиль писателя. Особое внимание уделяется феминистскому анализу образа Батшебы Эвердин, художественной функции вымышленного региона Уэссекс как хронотопа и применению принципов психологического реализма. Работа направлена на выявление теоретико-эстетических основ английского реализма через призму поэтики романа Харди.

Ключевые слова: Томас Харди, поэтика романа, викторианская эпоха, феминистский анализ, хронотоп, реализм, натурализм.

Ingliz realizmi adabiyotining taniqli vakili Tomas Hardy o‘zining badiiy asarlari orqali XIX asrning ikkinchi yarmida Angliyada yuzaga kelgan ijtimoiy o‘zgarishlar, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, shaxsiy tanlovlari va ularning ijtimoiy oqibatlari kabi murakkab masalalarni chuqur badiiy tahlil qilishga erishgan ijodkordir. Uning 1874-yilda nashr etilgan “G‘alati olomondan uzoqda” (Far from the Madding Crowd) nomli romani yozuvchining ijodidagi ilk yirik muvaffaqiyatlaridan biri bo‘lib, Viktoriya davrining qat’iy ijtimoiy me’yorlari va patriarchal qadriyatlari fonida shakllangan murakkab ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Ushbu asar orqali Hardy qishloq manzaralarining estetik va ramziy tasviridan, dramatik syujet qurilishidan va chuqur psixologik obrazlar tizimidan foydalanib, zamonaviy roman poetikasining fundamental tamoyillarini namoyon etadi. Jumladan, roman voqealari qishloq muhitida kechishiga qaramay, unda jamiyat, axloq va insoniy munosabatlar haqida global savollar ko‘tariladi. Batsheba Everdin obrazining mustaqil, qaror qabul qilishga qodir ayol sifatida tasvirlanishi, Gabriel Oakning fidoyi, sadoqatli inson timsolida namoyon bo‘lishi, shuningdek, sevgi, aldov, rashk va fofia kabi insoniy tuyg‘ularning psixologik tahlili asar poetikasining murakkablik darajasini belgilaydi. Ushbu tadqiqot aynan “G‘alati olomondan uzoqda” romanining poetik



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

strukturasi – ya’ni kompozitsiyasi, syujet dinamikasi, obrazlar tizimi, makon-zamon talqini va badiiy til xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, Tomas Hardy ijodining estetik o‘ziga xosligini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda roman janrining poetikasini o‘rganish – bu asarlarning ichki badiiy tuzilishini, kompozitsion mexanizmlarini, obrazlar tizimini, vaqt va makon tasvirini, til va uslub vositalarini tahlil qilishni anglatadi. Roman poetikasi, ayniqsa, realizm oqimiga mansub asarlar misolida o‘rganilganda, badiiy tafakkurning tarixiy-ijtimoiy, falsafiy va estetik mezonlar bilan qanday uyg‘unlashganini aniqlash imkonini beradi. Tomas Hardy ijodi ingliz realizmining o‘ziga xos davomi bo‘lib, u klassik realizm va naturalistik yondashuv elementlarini uyg‘unlashtirgan. Shu boisdan ham uning romanlarini poetik jihatdan o‘rganish nafaqat badiiy shakllarning, balki davrga xos axloqiy-estetik qarashlarning tahlilini ham o‘z ichiga oladi.

Hardy romanlarining poetikasini tahlil qilishda M. M. Baxtin tomonidan ilgari surilgan “roman ichidagi vaqt va makonning xronotopi” haqidagi nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Baxtinga ko‘ra, har qanday roman o‘ziga xos vaqt va makonni yaratadi, va bu xronotop orqali voqealar rivojlanadi, qahramonlarning ruhiy holati, qarorlari va o‘zgarishlari badiiy tasvirda mujassam bo‘ladi. “G‘alati olomondan uzoqda” romanida ham Hardy tomonidan yaratilgan Vesseks xayoliy makoni shunchaki geografik joy emas, balki obrazlar ruhiyatini ifoda etuvchi badiiy muhit vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, romandagi psixologik realizm tamoyillarini tahlil qilishda I. A. Esaulov, G. G. Belya, va ingliz adabiyotshunoslari — Ian Gregor, Kristin Lindop kabi olimlarning Hardy asarlaridagi dramatik konstruksiya, gender rollar, axloqiy dualizm va sotsial konfliktlar haqidagi tadqiqotlari nazariy asos sifatida foydalilanilgan. Ayniqsa, feministik yondashuv asosida ayol obrazining roman poetikasidagi o‘rnini aniqlash uchun S. Gilbert va S. Gubar tomonidan ishlab chiqilgan “madwoman in the attic” nazariyasi ham dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, klassik realizm doirasida A. Belinskiy, G. Pospelov, V. Kovalzon kabi olimlarning poetik tahlilga oid ishlanmalari Hardy ijodini tipologik jihatdan anglashga xizmat qiladi. Bu nazariy qarashlar yordamida Hardy romanlarida realizm



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

va naturalizm o‘rtasidagi o‘zaro dialektika, jamiyat va shaxs, tabiat va inson, axloqiy tanlov va ijtimoiy bosim kabi poetik konstruksiyalarni tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Natijada, ushbu tadqiqot Hardy roman poetikasini zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari – strukturaviy, kontekstual, feministik hamda psixologik-realistik metodlar asosida tahlil qilishga intiladi. Bu esa “G‘alati olomondan uzoqda” romanining nafaqat estetik, balki falsafiy-ma’naviy qatlamlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan “G‘alati olomondan uzoqda” romanining poetik tuzilmasi, badiiy komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi va ularning mazmuniy-estetik yuklamasi Tomas Hardy ijodining murakkab va ko‘p qatlamlili tabiatini tasdiqlaydi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, romanning kompozitsiyasi klassik voqeaviylik asosida shakllangan bo‘lib, unda asosiy syujet chizig‘i Batsheba Everdin atrofida rivojlanadi. Batshebaning hayotiga kirib kelgan uch erkak – Gabriel Oak, Serjant Troy va janob Boldvud obrazlari orqali insoniy fazilatlar, ehtiros, ijtimoiy majburiyat va ichki qarama-qarshiliklar oolib beriladi. Aynan shu syujet konstruksiysi orqali Hardy roman poetikasining asosiy tamoyillarini — ziddiyat, dramatizm, ruhiy kurash va axloqiy tanlovnni yoritadi.

Roman obrazlari poetik jihatdan chuqur shakllantirilgan bo‘lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy rollarni aks ettiruvchi timsollar sifatida namoyon bo‘ladi. Gabriel Oak – sadoqat, halollik va mehnatsevarlik timsoli; Troy – impulsivlik, jismoniy joziba va o‘ta hissiyotlilik ramzi; Boldvud – an’anaviylik, ijtimoiy bosim va ichki iztirob personifikatsiyasidir. Batsheba esa Hardy tomonidan mustaqil, o‘z fikriga ega, ammo ba’zida qarorlarida adashadigan ayol obrazida yaratilgan bo‘lib, bu orqali muallif Viktoriya davrida ayol erkinligi va ijtimoiy stereotiplarga qarshi turgan yangi ayol tipini ko‘rsatadi. Bu obrazlar o‘zaro murakkab munosabatlar tizimi orqali ochiladi va ular o‘rtasidagi ziddiyat romanning syujet dinamikasini belgilaydi.

Zamon va makon poetikasi ham asarning muhim badiiy qatlami sifatida namoyon bo‘ladi. Roman Vesseks deb ataluvchi xayoliy, ammo real qishloq hayoti asosida yaratilgan hududda kechadi. Tabiat tasvirlari — bahorning uyg‘onishi, yozning yashnashi, kuzgi serxarajatlik va qishning sovuq sukunati – syujet voqealarini va qahramonlar kechinmalarining ruhiy holatini ramziy tarzda ifodalaydi. Baxtli yoki fojiali voqealar muayyan tabiat manzarasi fonida tasvirlangani romanning badiiy



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

muvozanatini kuchaytiradi. Bu jihat Baxtinning “xronotop” nazariyasini tasdiqlovchi misol sifatida baholanadi.

Hardy til va uslub jihatidan ham o‘ziga xos estetik olam yaratgan. Uning tasvirlari lirizm va realizmni uyg‘unlashtirgan, xalqona iboralar bilan zamonaviy psixologik tahlil usullarini birlashtirgan. Tabiiy tasvirlar, ichki monologlar, falsafiy mulohazalar va ruhiy portretlar muallif tilining o‘ziga xosligini belgilaydi. U roman davomida ko‘p hollarda tabiatni inson sifatida personifikatsiya qiladi va bu orqali qahramonlar kechinmalarini yanada chuqr ifodalaydi.

Yana bir muhim natija shuki, Hardy romanida realizm va naturalizm unsurlari birgalikda namoyon bo‘ladi. Masalan, Gabriel Oak obrazida ijtimoiy realistik g‘oyalar — mehnat, halollik va vaqt sinovlariga chidamli bo‘lish talqini ko‘rsatilsa, Troy va Boldvud obrazlarida insoniy instinktlar, ruhiy inqiroz va ijtimoiy psixologik bosimlar naturalistik tarzda yoritiladi. Bularning barchasi Hardy roman poetikasining ko‘p qirrali va qatlamlı tuzilishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “G‘alati olomondan uzoqda” romani Tomas Hardining badiiy-mahoratini to‘laqonli aks ettiruvchi asar bo‘lib, unda roman poetikasining asosiy komponentlari — kompozitsiya, syujet qurilishi, obrazlar tizimi, zamon va makon talqini, til va uslubiy xususiyatlar yuqori badiiy darajada mujassam topgan. Asar syujeti klassik voqeaviylik asosida shakllangan bo‘lib, qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar orqali insoniy fazilatlar, axloqiy tanlovlardan, ijtimoiy bosim va ruhiy kurashlar tahlil etilgan. Obrazlar tizimi o‘zining psixologik chuqurligi va ijtimoiy funksionalligi bilan ajralib turadi, ayniqsa Batsheba Everdinning mustaqil ayol sifatida shakllanishi muallifning jamiyatdagi gender stereotiplariga munosabatini ochib beradi.

Roman makonining xayoliy bo‘lishiga qaramay, Hardy Vesseksni badiiy voqealar rivojlanadigan estetik xronotop sifatida talqin qiladi, bunda tabiat manzaralari va mavsumlar ramziy yuklama kasb etadi. Ayniqsa zamon va makon tasvirining obrazlar ruhiy holati bilan uyg‘unligi Hardy roman poetikasining muhim unsurlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Muallif tili badiiy obrazlilik, lirizm, ichki monologlar va realistik ifodaning o‘ziga xos uyg‘unligiga asoslanadi, bu esa roman poetikasini chuqr estetik tizim sifatida namoyon etadi.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

Xulosa

Tadqiqot davomida aniqlanganki, Hardy ijodi realizm va naturalizm oqimlari o'rtaqidagi stilistik bog'lanishni anglatadi. U real hayotning murakkabligini, insonning ichki kechinmalarini va tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini badiiy vositalar orqali chuqur tahlil etadi. Xususan, "G'alati olomondan uzoqda" romani nafaqat syujet darajasida, balki ichki kompozitsion, semantik va psixologik qatlamlar orqali ham chuqur poetik struktura hosil qilgan. Shu bois mazkur asarni poetik jihatdan tahlil qilish Tomas Hardy ijodining nazariy-estetik asoslarini aniqlashda, shuningdek, ingliz realizmi taraqqiyotini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborovich, X. J., & Sherkulovich, M. K. (2020). Lexicographic study of ethnonymy semantics. Test Engineering and Management, 83(5-6), 737-742.
2. Бобокалонов, Р. Р., Курбанов, П. А., Маркаев, К. Ш., & Хайтов, Ч. (2016). ДОСТИЖЕНИЯ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ ТЕКСТА НА ОСНОВЕ НАУЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. International scientific journal, 30.
3. SHERQULOV, S. TRAGEDY IN WILLIAM FAULKNER'S "THE SOUND AND THE FURY". O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324.
4. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA'SIR MASALALARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).
5. Komilovich, SS (2023). TOG 'AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA'SIRI. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali , 7 (1), 75-77.
6. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). "MARJONLAR O'YINI" ROMANIDA G'ARB VA SHARQ TAFAKKURINING SINTEZI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 80-87).
7. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 72-79).



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

8. Abdumannonovna, A. D. (2025, April). "MARJONLAR O 'YINI" ROMANIDA INTELLEKTUAL DUNYO VA REAL HAYOTNING AJRALISHI MUAMMOSI. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 169-176).
9. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).
10. Umid Ulug'bek o'g M. et al. XORIJIY VA MILLIY ASARLAR ASOSIDA GAMIFIKATSIYA VA ROLDA O'YNASH METODLARINI JORIY ETISH //International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2025. – C. 44-52.
11. Umid Ulug'bek o'g M. et al. TIL O 'RGANISHDA AUDIO-KITOBLAR VA MULTIMEDIA RESURSLARNING O 'RNI //International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2025. – C. 36-43.
12. Umid Ulug'bek o'g, Mamashoyev. "INDIVIDUAL TIL O 'RGATISH METODIKALARINI SHAKLLANTIRISH." International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 2025.
13. Umid Ulug'bek o'g, Mamashoyev. "ADABIY MATNLAR ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH." International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 2025.
14. Umid Ulug'bek o'gli, M. (2025, March). XORIJIY VA MILLIY BADIY ASARLARNING TIL O 'RGATISHDAGI DIDAKTIK AHAMIYATI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 56-63).
15. Umid Ulug'bek o'gli, M. (2025, March). TIL O'RGANISHDA ADABIYOTNING O'RNI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 64-71).
16. Xidirova, N. B., Oromova, S. S. Q., & Otajonova, K. R. (2024). TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI. Indexing, 1(1).



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

17. Xidirova, N., Oromova, S., & Otajonova, K. (2024). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo 'llash istiqbollari. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, 1(1), 18-21.
18. Boymurotovna, X. N., qizi Oromova, S. S., Otajonova, K. R., & qizi Uralova, K. J. (2024). MOLIYA-BANK SOHASIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI. GOLDEN BRAIN, 2(21), 86-90.
19. Boymurotovna, X. N. Asror o'g'li, AO, & Rajabboyevna, OK (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O'ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING O'ZGARISHI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 63-70).
20. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION.". "Science Shine" International scientific journal, 14(1).
21. Botirovich, X. S. (2024). AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO 'LLASH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 66-70.
22. Khayriddinov, S., & Nodirova, F. (2024). Advanced pedagogical in improving the quality of education the significance of experiences in the educational system. Talqin va tadqiqotlar,(28).
23. Khayriddinov, S. (2023). Cloud technologies as a tool for forming personal information educational environment. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 72-76.
24. Botirovich, X. S. Iskandar o 'g 'li, SB (2024). PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL. GOLDEN BRAIN, 2(16), 42-46.
25. Botirovich, X. S. Murodullo o 'g, JOT, & Akbar o 'g 'li, SR (2024). INTERNET VA "KUMUSH ASR" YANGI IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR. Modern education and development, 11(3), 127-132.
26. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O 'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).
27. Abduqodirov, A. A., Yusupbekov, A. N., Suvonov, B. I., & Toshtemirov, R. T. (2022). Tabiiy gazni qayta ishlash jarayonining intellektuallashtirilgan boshqaruvida noaniq mantiq asosidagi modeldan foydalangan holda nazorat



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

qilish. Инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании, 1(1), 100-108.

28. Egamberdiev, K., Khidirova, N., & Islomov, A. (2024). Creation of an automated information system using python and the django framework with a telegram bot. Big Data and Computing Visions, 4(3), 219-226.

29. Джуманов, Ж. Х., Юсупов, Р. А., Эгамбердиев, Х. С., Ишанходжаев, О. А., & Ахролов, Ш. С. (2019). Математическое моделирование процессов геофильтрации подземных вод в многослойных средах (на примере Китабошахрисабзского месторождения подземных вод)/ВЕСТНИК ТУИТ. Ташкент. ТАТУ, 3, 51.

30. Эгамбердиев, X., Раҳматуллаев, Д., & Дилмуров, З. (2023). ГРУНТ ВА ЕР УСТИ СУВ ОҚИМЛАРИНИНГ ЎЗАРО ТАЪСИРИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 3), 107-113.

31. Джуманов, Ж. Х., Юсупов, Р. А., & Эгамбердиев, Х. С. (2019). ва б. К вопросу практического применения «Big DATA» в гидрогеологических исследованиях. In Пятая Международная научно-практическая конференция «Big DATA and Advanced Analytics. Big DATA и анализ высокого уровня» Минск. Республика Беларусь (pp. 13-14).

32. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(2), 17-22.

33. Кучкаров, Т., & Маматова, Г. (2024). ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ОБЩЕСТВЕ. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(4), 127-136.

34. Mamatova, G. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 296-312.

35. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'ZARO MULQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

-
36. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).
 37. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKIOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
 38. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
 39. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
 40. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).